

Uzbekistan Airways “Turizm Markaziy Osiyo qanotlarida ” biznes uchrashuvini o‘tkazdi

2025 6 Avgust

2025-yil 6-avgust kuni O‘zbekiston milliy aviatashuvchisi “Uzbekistan Airways” kompaniyasi sayyohlik agentliklari vakillari bilan “Turizm Markaziy Osiyo qanotlarida” ishbilarmonlik uchrashuvini o‘tkazdi.



Tadbir turizm sohasi ishtirokchilari bilan hamkorlikni mustahkamlash, yo'lovchilar tashuvi va sayyohlik yo'nalishlarini targ'ib qilish sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish istiqbollarini muhokama qilish uchun muhim maydonga aylandi.



Uchrashuv ertalabki welcome-coffee bilan boshlandi, unda ishtirokchilar norasmiy muhitda suhbatlashish va yangi ishbilarmonlik aloqalarini o'rnatish imkoniyatiga ega bo'ldilar.



Aviakompaniya rahbariyati mehmonlarga tabrik so'zi bilan murojaat qilib, mintaqada aviatsiya turizmini rivojlantirish uchun sayyohlik hamjamiyati bilan birgalikda ishlash muhimligini ta'kidladi. Shundan so'ng, Uzbekistan Airways'ning mavjud imkoniyatlari va yo'nalishlar tarmog'i, tarif siyosatining o'ziga xos xususiyatlari va yangi yo'nalishlar haqida taqdimot o'tkazildi.



Taqdimot doirasida turistik agentliklar va operatorlar uchun qulay sotuv texnologiyalaridan tortib marketing yordami va sodiqlik dasturi doirasida korporativ mahsulot bo'yicha ma'lumotlarga cha bo'lgan imkoniyatlarni kengaytirishni hisobga olgan holda o'zaro hamkorlik va mijozga yo'naltirilgan xizmatlar masalalariga alohida e'tibor qaratildi.



Tadbir yakunida ochiq muloqot bo'lib o'tdi, unda ishtirokchilar savollar berish, fikr almashish va hamkorlikning dolzarb masalalarini muhokama qilish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Uchrashuvning so'nggida esa mehmonlar o'rtasida sovrinli o'yinlar bo'lib o'tdi.



Biznes uchrashuvning o'tkazilishi Uzbekistan Airways'ning sayyohlik biznesi bilan hamkorlikni mustahkamlash va Markaziy Osiyo makonida aviatsiya turizmini birgalikda rivojlantirish strategiyasini amalga oshirishda muhim qadam bo'ldi.





